



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APRIL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Xajiyeva Charos Karimboyevna CHIZMACHILIK DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH	7
2. Qadirova Muyassar Allaberganovna KONSTRUKTIV RASM CHIZISHNING BOSQICHLARI	9
3. Xudayberganova Dilmira Otanazarovna, Qurbonova Ma'mura Odamboyevna SXEMALAR VA QURILISH CHIZMALARINI O'QISH, BAJARISHNI O'RGATISH.....	11
4. Каримов Суннатилло Маъруфжон ўғли, Ходжаев А.А БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗЛАРИДА КРЕАТИВ ИНТЕРЬЕРНИНГ АҲАМИЯТИ	13



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

CHIZMACHILIK DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Xajiyeva Charos Karimboyevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ta'sviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib maqolada Chizmachilik darslarida ham innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ba'zi usullari haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlari: innovatsion texnologiyalar, interaktiv metod, chizmachilik, grafik.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkon boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya – inglizcha so'z bo'lib, *yangilik kiritish*, *yangilik* ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. **Interaktiv metodlar** – bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi.

Umumta'lim maktablaridagi chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashiga to'g'ri keladi. Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini ko'rsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq. Chizmachilik darslari maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetlarida o'tiladi. O'qituvchining diqqat markazida hamisha o'quvchilarda amaliy grafik ish bajarish malakalarini shakllantirish asosiy vazifa ekanligi turishi kerak. Dars turi ham shundan kelib chiqib tanlanishi zarur. Ta'lim metodlarini tanlashda albatta chizmachilik fanining xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. Yangi mavzuni o'rganishda o'quvchilarga *"Hammasi tushunarlimi?"* yoki *"Hamma tushundimi?"* qabilidagi savollar bilan murojaat qilish yaramaydi. Chunki, kamdan-kam odam o'zining tushunmasligini tan oladi. Shuning uchun *"Ushbu kesimni hosil qiluvchi tekislik qanday vaziyatda joylashgan?"*, *"Konus sirtidagi A nuqtaning gorizon-*



tal proektsiyasi qanday topiladi?”, yoki *“Pog‘onali va siniq qirqimlar qanday hosil qilinadi”* kabi aniq savollar bilan murojaat qilish kerak. Ayniqsa o‘qituvchi doskada chizma bajarish jarayonida to‘xtab, o‘quvchilarga *“Keyingi yasashlarni qanday bajaramiz?”* yoki *“Ushbu detal chizmasini bajarishda nechta ko‘rinish zarur bo‘ladi?”* kabi savollarni tashlashi yaxshi samara beradi. Savolning bunday qo‘yilishi o‘quvchilarni bajarilayotgan ish yechimini topishning faol ishtirokchilariga aylantiradi va ularni o‘ylanib, taxminlari ichidan eng to‘g‘rirog‘ini tanlashga o‘rgatadi. Pedagogikada darslarning har xil turlari va o‘qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan:

- yangi materialni o‘rganish darsi;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darsi;
- takrorlash-umumlashtirish darsi;
- aralash yoki kombinatsiyalashgan dars.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi – *aralash* yoki *kombinatsiyalashgan* darsdir. Bunda o‘qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar tomonidan amaliy ishlarni bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o‘quvchilarga o‘quv adabiyotlaridan foydalanib olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi.

Eng sodda klassifikatsiya bo‘yicha dars mashg‘ulotlari *og‘zaki*, *ko‘rgazmali* va *amaliy* metodlarga bo‘linadi. Chizmachilik darslarining og‘zaki ko‘rinishiga o‘qituvchining ma’ruza-suhbat shaklidagi materialni bayon qilishi, sinf doskasida mavzuga tegishli chizmalarni bajarishi hamda o‘quvchilarning o‘quv qo‘llanmalari va ma’lumotnomalardan foydalanib mustaqil ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim jarayonida turli xil didaktik o‘yinli texnologiyalar tashkil qilish, shuningdek chizmachilik darslarini interaktiv metodlar yordamida olib borilsa, quvchilarning shu fanga qiziqtirish, o‘quvchilarimizning salohiyatlarni rivojlantirishga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sayidmurodov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2008
2. Ro‘ziev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. – T.: 2010
3. Isaeva M.Sh. Chizmachilikdan topshiriqlar. – T., 1992



KONSTRUKTIV RASM CHIZISHNING BOSQICHLARI

Qadirova Muyassar Allaberganovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

4 -son umumiy o'rta ta'lim maktabning
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstruktiv rasm chizishni egallash va konstruktiv rasm chizishning bosqichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: konstruktiv rasm, naturmort, natura, geometrik shakl, qog'oz, gips, chiziq, tasvirlash.

Konstruktiv rasm bu - buyumlarni tasvirlashda ularning asosiy o'lchamlarini olib chizilgan chiziqli perspektiv rasmdir. Konstruktiv rasm chizishni egallash bilan biz geometrik jismlarni tasvirlashni o'rganamiz. Har qanday buyumni tasvirlash uchun, konstruktiv asosda qurish yo'llarini bilish kerak. Ayniqsa geometrik jismlarni tasvirlash uchun bu yo'l katta yordam beradi.

Kub, konus va slindirni konstruktiv qurish usulini ko'rib chiqaylik: Konstruktiv rasm chiziqlarni yengil o'tkazish bilan buyumning tasvir tekisligidagi kompozitsiyasini topishdan boshlanadi. Qog'oz betiga naturadagi buyumlarning joylari umumiy belgilab chiqiladi. Keyin har bir buyum alohida-alohida sxematik chiziladi (1- rasm).


Ishning keyingi bosqichida uch geometrik jismning konstruktiv qurilishi va perspektiv qisqarishlari hisobga olinib ko'rinmaydigan qirralari ham diqqat bilan chiziladi (2- rasm).

Gipsdan yasalgan geometrik jismlarni tasvirlashda shu narsaga e'tibor berish kerakki, jismning oq nursiz yuzasi naturadagi hamma yorug' yuzalarni bir-biridan farqlashga imkon beradi. Bu endigina chizishni o'rganayotgan o'quvchilar uchun unchalik qiyin emas. Qo'yilgan naturani konstruktiv va perspektiva qonuni asosida qurib bo'lingach, keyingi bosqich, ya'ni buyum shaklini berishga o'tiladi.


Konstruktiv rasm chizishning usullari




1- rasm



2- rasm



3- rasm



4- rasm

Naturada rang (tus) jihatdan bir xil yuzalar chizig'i berib bekitiladi. Rangi to'q joylar yumshoqroq qalamda ishlanib ajratiladi. Eng yorug' joy oq qog'oz rangida qoldiriladi (3- rasm).



Keyingi bosqichda chizuvchi bo`laklar orasidagi farqni topish va yaxlitlik holatiga olib kelishi kerak. Ishning oxirgi bosqichlarida ishdagi xato-kamchiliklar tuzatiladi. Kompozitsion qurilishi, rang holati, bo`laklar orasidagi bog`lanish hamda umumiy ish natijasiga qarab chiqiladi (4- rasm).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Boymetov. Qalamtasvir.
2. V. A. Yablonskiy. Prepodovanie predmetov «Risunok» i «Osnov! kompozitsii».
3. Internet saytlari.



СХЕМALAR VA QURILISH CHIZMALARINI O'QISH, BAJARISHNI O'RGATISH

Xudayberganova Dilmira Otanazarovna

Xorazm viloyati Urganch tumani 43-son maktab
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
Tel: +998932885601

Qurbonova Ma'mura Odamboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 34-son maktab
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
Tel: +998995084135

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizmachilik darslarida o'quvchilarga sxema va qurilish chizmalarini o'qish va bajarishni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berilgan, sxemalarning turlari va vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sxema, chizmachilik, sxema turlari, sxema tiplari, proekt, arxitektura qurilish chizmalari, shartli belgilar.

O'quvchilarga sxemalarni o'qish va bajarishga o'rgatishda darsning kirish qismiga shahar yo'lovchi transportining sxemasini olib kirib, uni o'quvchilar bilan muhokama qilib chiqishni tavsiya qilamiz. Bunga o'xshash misollar universal va sodda bo'lib o'quvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Har qanday sxema ham mavhum, biror narsaning soddalashtirilgan tasviri bo'lib aniq jarayon, konstruksiya va tuzilish kabilarni tushunishni osonlashtirishga xizmat qilishini takidlab o'tish kerak. O'quvchilar quyi sinflardagi mehnat ta'limi darslaridan boshlab sodda kinematik va elektrik sxemalardagi shartli belgilashlar, ularni o'qish va bajarish bo'yicha dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Chizmachilik darslarida bu bilimlarni kengaytirib, bir tizimga keltirish talab qilinadi.

Umumta'lim maktablari uchun nashr qilingan chizmachilik darsligida

kinematik hamda elektrik sxemalar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilarni shu sxemalarni o'qishga o'rgatish ko'zda tutilgan. Kasb-hunar kollejlarning mos mutaxassisligida talabalar sxemalarni o'qish va bajarish malakalarini yetarlicha chuqur o'rgangan bo'lishlari talab qilinadi. Umuman, har bir o'quvchini sxemalarni to'g'ri o'qish va undan turmushda foydalana olish malakalarini egallaganligi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Shuning

uchun sxemalarni o'qish va bajarish bo'yicha asosiy ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Ishlatilish sohasi va mazmuniga ko'ra sxemalar chizmachilik kursining asosiy materialini tashkil qiladigan proeksion chizmachilikdan ko'p jihatlari bilan farqlanadi. Bu farqlar qisqacha quyidagilardan iborat:

- Sxemalar ma'lum sohada qo'llaniladigan tayyor mahsulotlarning konstruksiyalarini ochib ko'rsatmasdan, ularning tarkibiy qismlarini o'ta

soddalashtirilgan shartli belgilar yordamida o'zaro bog'lanishi va harakatlarini tasvirlaydi;

- Sxemalarning vazifasi biror ko'rinishdagi: mexanik (kinematik sxemalar), elektrik (elektr sxemalari), siqilgan havo yoki gaz (pnevmatik sxemalar) va h.k. energiyaning harakati va o'zgarishini yaqqol ko'rsatishdan iborat. Yaqqollikni ta'minlash maqsadida sxemaning hamma elementlari fazoda haqiqiy joylashgan o'rniga qaramasdan bitta tekislikka yoyib tasvirlanadi;

- Sxemalarning vazifasi qurilma tarkibiga kiruvchi elementlarni ko'rsatib berish emas, balki ularning o'zaro aloqalari xarakterini ochishdan iborat bo'lganligi uchun sxema bu aloqalar xarakterining o'zgarish ehtimoli bilan bog'liq malumotlarni (mexanik uzatmalarda tezlikning o'zgarishi, radiopriyomnik to'lqinlarini turli diapazonlarga to'g'rlash, televizor kanallarini almashtirish va h.k.) ham o'z ichiga olishi kerak.

- Ko'p hollarda o'quvchining texnik bilimlarga egaligi talab qilinmaydigan murakkab bo'lmagan proeksion chizmani o'qishga nisbatan sxemalar bilan ishlash (ularni o'qish va bajarish), ma'lum darajada o'quvchilarning shu sohadagi texnik bilimlar saviyasiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarga qiziqarli va ular tushunishi oson bo'lgan sxemani o'qish uchun individual topshiriqlar tanlash hamisha o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligida plakatdan sxemani frontal o'qish ta'limiy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak. Sxemalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklardan biri, ularda turli xil shartli belgilashlarning ko'pligi hamda materialni o'rganishga ajratilgan vaqtning kamligi sababli,



o'quvchilar ularni eslab qolishda qiynaladilar. Shuning uchun bu yerda

o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchilarda ko'proq ma'lumotnomalar (jadvallar, shartli belgilar) bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratishi kerak. Mavzuni o'zlashtirishda o'quvchilar sxemaning zarur joylariga (yozuvlarning o'rniga) shartli belgilarni qo'yib chiqishi talab qilinadigan topshiriqlar yaxshi natija beradi. Yirik o'lchamda bajarilgan kinematik sxema (tokarlik yoki boshqa stanokning tezliklar qutisi, avtomobilning uzatmalar qutisi va h.) plakatini

o'quvchilar bilan frontal o'qishda o'qituvchi tishli mexanizmlardagi «yetakchi» va «yetaklanuvchi» atamalarining ma'nosini tushuntirishi hamda tezlikni o'zgartirishni hisoblash qoidalariga umumiy tarzda to'xtalib o'tishi kerak bo'ladi. Buning uchun shartli belgilarini almashtirish imkoniyati bo'lgan plakatdan foydalanish qulaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.I Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi.
2. Ro'ziyev E.I. Chizmachilik o'qitish metodikasi.
3. Воротников И.А. Занимательное черчение.
4. www.google.uz



БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗЛАРИДА КРЕАТИВ ИНТЕРЬЕРНИНГ АҲАМИЯТИ

Каримов Суннатилло Маъруфжон ўғли

Камолиддин Бехзод номидаги миллий рассомлик
ва дизайн институти 2 босқич магистранти
(99 897 714 53 75)

Илмий раҳбар Т.Ф.Д., профессор **Ходжаев А.А**

Аннотация: Мақолада болалар таълим олиш масканларида, болаларнинг туғма қобилиятларини шакллантиришига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатувчи, бадиий композицион ечимга эга, ўзида креатив дизайнни намоён этган интерьерларнинг аҳамияти кўриб чиқилган. Мақола таҳлилий манбаларга асосланган бўлиб, креативлик тушунчаси, ранг уйғунлиги, шакл ва жиҳозлар композицияси шунингдек замонавий материаллардан тўғри фойдаланиш орқали креатив интерьер яратишлик назариялари ёритилган.

Аннотация: В статье рассматривается значение интерьеров в детских образовательных учреждениях, имеющих художественно – композиционное решение, отражающее творческий замысел, что положительно сказывается на формировании врожденных способностей детей. Статья основана на аналитических источниках и раскрывает концепции креативности, цветовой гармонии, формы и состава оборудования, а также теории создания креативного интерьера за счет правильного использования современных материалов.

Калит сўзлар: *Креатив, креатив шахс, креатив интерьер, интерьер, инновацион марказ.*

Креатив дизайн яратишда креативлик тушунчасининг маъносини тўғри талқин қилиш аҳамият касб этади. Бугунги кунда ижодкорлик, яратувчанлик, янгилик яратишга қаратилган фаолият креатив фаолият деб тушунилади.

Креативлик сўзи (инглизча “create” – яратувчанлик, ижодкорлик) сўздан олинган бўлиб, инсон шахсининг ижодкорликка бўлган қобилияти, ижодкорлик истеъдод даражаси, индивиднинг анъанавийлик ёки одат тусига кирган фикрлаш схемасидан узоқ бўлган, принципаал янги ғояларни яратишга тайёрликни характерловчи, шунингдек, муаммоларни ўзгача тарзда бартараф этиш, иқтидорнинг мустақил фактори сифатида қабул қилинган ижодий қобилиятларидир.

Америкалик олим Давид Векслер: “Креативлик фикрнинг шундай турики, у шахсга бир муаммо ёки масала юзасидан бирданига бир нечта ечимлар пайдо бўлишини тақозо этади ва шаблонли, зерикарли фикрлашдан фарқ қилиб, нарса ва ҳодисалар моҳиятидаги ўзига хослик, ноёблик сифатларини англашга ёрдам беради ” - деб таъриф беради [1].

Креативлик ахборотни ёдда сақлаш ва фактларни йиғишга асосланганлиги туфайли анъанавий таълим системаси ҳар доим ҳам шахснинг, хусусан болалар ва ўсмирларнинг креативлик қобилиятини ривожлантиришга қодир эмас. Кундалик ҳаёт тарзи кўпинча шахснинг креатив хусусиятларининг пасайишига сабаб бўлади [2].

Креатив қобилиятларнинг ривожланиши махсус ташкил қилинган муҳит бўлиши лозим. Келажакда ижодий қобилиятлардан фойдаланиш учун таълим жараёнига махсус топшириқларни киритиш зарур. Абрахам Маслоу ҳам креативликни - барчага хос туғма ижодий қобилият, атроф муҳитнинг таъсирида кўпчиликда йўқолиб кетувчи фаолият деб ҳисоблаган [3].

Креативликнинг интерьер дизайнидаги кўриниши – ноодатий ечимлар ёрдамида инсонга ҳар томонлама мос келувчи интерьер муҳитини яратишга асосланади. Бунда архитектуравий ечим, услубий ечим, ранг ечими, хонадаги жиҳозларнинг жойлашуви, табиий ва сунъий ёруғликдан фойдаланиш каби таркибий қисмлар мажмуасидан фойдаланилган ҳолда мавжуд ёки янгидан яратилаётган интерьерда ўзига хос, такрорланмас муҳит пайдо бўлади.

Креатив интерьер дадил ранг ечимлари, ноодатий жиҳозлар ва уларнинг янгича жойлашуви, концептуал ғояларни ўзида жамлаган муҳитдир.

Швед олимларининг тадқиқотларидан маълум бўлдики, интерьердаги кизиқарли ва ноодатий ечимлар унда фаолият юритаётган ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини 32%га оширар экан [4].

Интерьернинг креатив бўлишида турли хил элементларнинг таъсири бор:



- девор, пол ва шифт учун танланадиган материаллар ва ранглар;
- жиҳозлар (кўп вазифали, трансформатор, дизайнерлик жиҳозлари);
- текстил (парда, ёстик, дастурхон, жилдлар);
- ноодатий услублар ёки турли услубларнинг бир вақтда фойдаланилиши (авангард, хай-тек, поп-арт, фьюжн, классик услублар), турли халқларга хос этник услублар элементларини қўллаш;
- бирор бир ғояга асосланиш (адабий асар, кино, мультфильм, тарихий ҳодиса ёки қаҳрамон ва ҳ.к.);
- тўсувчи деворларни енгил конструкциялар, шаффоф ойналар, рангли витражлар билан бойитиш;
- ёритиш мосламаларининг ноодатий ранглари, шакллари ёки жойлашуви;
- эшик ва ойналарнинг ўзига хос тарзда танлаш;
- ўсимликлар ёрдамида қизиқарли ечимлар топиш (яшил деворлар, турли хилдаги ўсимликлар)
- турли тасвирлардан маълум бир дизайн ғоясини акс эттиришда фойдаланиш (расмлар, чизиклар тўлқинлар, маълумотлар ва б.) ва шу кабилар.

Ҳозирги даврда қурилиш материалларининг хилма хиллиги интерьерда деярли барча ғояларни ҳаётга татбиқ эта олиш имконини яратган. Улар ёрдамида янги лойиҳалар яратиш ва мавжуд бинолар ва интерьерларга креативлик қўшиш мумкин.

Болалар ва ўсмирларнинг келажакда қандай шахс бўлиб етишиши уни ўраб турган атроф-муҳитга боғлиқ. Туғма креативликни ривожлантириш учун болани ўраб турган муҳит ҳам шунга мос бўлиши лозим. Болалар ва ўсмирларни мактабдан ташқари таълим марказларига кўпроқ жалб қилиш учун уларда бу масканга бўлган қизиқишни кучайтириш керак. Бунда креатив интерьерларнинг аҳамияти каттадир.

Интерьердаги бадийлик, кичик элементларнинг катталарига боғланиши ва мос бўлиши ўсиб келаётган авлоднинг эстетик ривожланишига ёрдам беради. Интерьердаги уйғунликни яратишда рангнинг аҳамияти катта, бунда ҳар бир рангнинг таъсири эмас, балки бир неча рангларнинг биргаликда қандай кўриниши муҳим рол уйнайди. Интерьер рангларини бир умумийликда қабул қилишда рангларнинг улар қўлланиладиган ҳажмларнинг қандай катталикида эканлига қараб танлаш мақсадга мувофиқ. Катта юзалар оч, юмшоқ рангларга, кичик юзалар эса ёрқин рангларга бўялиши керак. Айниқса, девор ва полнинг узаро ранглардаги муносабатига катта аҳамият бериш керак. Интерьернинг асосий компонентларининг ранглари белгилаб олиш кичикроқ маиший предметлар рангини танлашга ёрдам беради.

Ҳозирда архитектура ва интерьерда ранг танлашда замонавий материалларнинг хусусиятлари ўзига хос ўринга эга. Ёрқин ва чиройли тусларда танланган, ўз бадий ечимига эга, рангларнинг хилма-хиллиги акс этган жиҳозлар интерьерни ортиқча декоратив элементлар билан бойитишга зарурият қолдирмайди. Ҳар бир интерьерни лойиҳалаш, унга жиҳозлар танлашда кўплаб факторларга аҳамият бериш керак. Булар: санитар-гигиеник талаблар, болалар, ўсмирлар ҳамда ходимлар учун қулайлик, бадий ечим, умумий кўринишга мослиги, чидамлилиқ, қурилиш ва фойдаланишда соддалик кабилардир.

Интерьерда креатив муҳит яратишда жиҳозларга тўғри танланган рангларнинг аҳамияти катта. Оддий интерьерни ҳам тўғри акцентлар билан такрорланмас ва шинам қилиш мумкин. Лекин бунда меъёрлар ошиб кетмаслик лозим. Ортиқча ранглар инсонни тез чарчатиб, асабларнинг зўриқишига олиб келади.

Рангларни танлашда бир неча усул билан мослаш мумкин: ўзаро яқин ранглар (сарик ва қаймоқранг, сарик ва оч яшил, қора ва кулранг, ҳаворанг ва оқ каби); бир тусдаги, ҳар хил тўйинганликка эга ранглар (градиент); ҳар хил ранглар (яқин тўйинганликка эга бўлиши керак). Рангларни тўғри мослаш, тўғри акцентлар бериш интерьерга умумий бир кайфият бағишлайди. Интерьерларда тўғри фойдаланилган креатив ечимлари нафақат болаларда, балки уларнинг ота-оналарида ҳам қизиқиш уйғотади. Инновацион ривожлантириш марказларида олинган билимлар – қизиқишларни аниқлаш, келажакда тўғри касб эгаллаш учун пойдевор бўлади. Шу сабабли, инновацион марказ интерьерларининг дизайн ечимларини топишда болалар ва ўсмирларнинг ҳар томонлама ривожланишига ёрдам берувчи креатив интерьер яратиш лозим.

Таҳлил натижалари шуни намоён этадики: бадий композицион ечимга эга, креатив



интерьер муҳитини яратиш орқали болалар ва ўсмирларнинг ривожлантириш марказларига бўлган меҳрини ортишига, бўш вақтларидан унумли фойдаланиши ва ўз қобилиятларини тўғри ривожлантириб бориш имконини бераолади.

Адабиётлар рўйхати

1. Дорфман Л.Я. Человек креативный: особенности мышления и личности // Во времени истории и в пространстве культуры: к 30-летию института/ Отв. ред. Е. А. Малянов.- Пермь: Пермский государственный институт искусства и культуры, 2005. 150 стр.
2. Пономарев Я. А. Исследование проблем психологии творчества. – М.: Наука, 1999. 303 стр.
3. Дорфман Л. Я., Гасимова В. А., Булатов А. В. Тест «Задания на внимание» и его возможности в исследованиях внимания в связи с креативностью, 2006. 96 стр.
4. Kwiatkowski, J., Vartanian, O., & Martindale, C. (1999). Creativity and speed of mental processing. *Empirical Studies of the Arts*, 17, p. 187 – 196.
5. Козлов М. Л. Детские образовательные учреждения: проблемы и ошибки проектирования // Академический вестник УралНИИпроект РААСН. 2011. №3. – 93 стр.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМІЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМІЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(14-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000